

## **KRIMINALISTIK EKSPERTIZA – RAQAMLI VOSITALAR ORQALI SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNI FOSH ETISH**

*Qirg'izboyev Ma'ruffjon Odiljon o'g'li  
 Namangan Viloyati Ichki Ishlar Boshqarmasi  
 Uchqo'rg'on tuman Ichki Ishlar bo'limi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborot texnologiyalari orqali sodir etiladigan jinoyatlarni fosh etishda ashyoviy dalillarning ahamiyati, ularni olish va qayd etishda texnik kriminalistik ekspertiza tayinlash hamda uni o'tkazish tartibi, shuningdek ekspertiza natijasida olinadigan ashyoviy dalillardan isbotlash jarayonida foydalanishning o'ziga xos jihatlari qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** ashyoviy dalil, log fayl, dasturiy ta'minot, ekspertiza tayinlash, ekspertiza o'tkazish, ekspertiza xulosasi, olib qo'yish, ko'zdan kechirish.

### **KIRISH**

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirish, huquqni muxofaza qiluvchi organlarning fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirish borasida bir qator muhim islohotlar amalgalashdi.

Ushbu amalgalashdi islohotlar zamirida, inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, shu jumladan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari amalgalashdi oshirilishini kafolatlash, xalqimizning huquqni muxofaza qiluvchi organlarga va odil sudlovning samaradorligiga nisbatan qat'iy ishonchi va hurmatini oshirishda to'laroq namoyon bo'ldi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Har bir jinoyat, u qanchalik yashirin sodir etilgan bo'lmasin, tez va to'la ochilishi lozim. Bunda, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari doimo sezgirlik bilan jinoiy voqeliklarni aniqlashi, ularni «issiq izlari» orqali fosh etish, jinoyat sodir etishga imkon bergen holatlarni aniqlashi, jinoyatning barcha ishtirokchilari, ayniqsa tashkilotchilari, dalolatchilari, bevosita ijrochilarini aniqlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat qancha tezva to'la ochilsa, inson, jamiyat va davlat manfaatlarini himoyalash vazifasi shuncha samarali bajariladi[1].

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda dalillarni to'plash va mustahkamlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, bu esa tergov va tezkor-qidiruv tadbiralarini o'z vaqtida sifatli va samarali o'tkazish zarurati bilan tavsiflanadi. Bunda albatta, har bir tergov va tezkor harakatlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, ayblanuvchining shaxsini sinchkovlik bilan o'rganish va u yoki bu harakatni amalgalashdi oshirish vaqtini to'g'ri tanlash imkoniyati hisoblanadi. Ularni tanlash va

amalga oshirishning ketma-ketligi dastlabki tergov harakatlarini amalga oshirishdan keyin vujudga kelgan tezkor vaziyat bilan belgilanadi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda jinoyatga oid ashyoviy dalillar, jinoyat qurorollari, turli izlarni aniqlash yuzasidan turli sud ekspertizalari tayinlanadi. Jumladan, hujjatlar bilan bog'liq ashyoviy dalillar olingan bo'lsa, (valyuta, pasport, diplom, haydovchilik guvohnomasi, lotereya biletlari) hujjatlarning texnik- kriminalistik ekspertizasi o'tkaziladi[2].

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan ashyoviy dalillarini qo'l bilan ushlab, oddiy ko'z bilan kuzatuv natijasida aniqlab bo'lmaydi, ya'ni ushbu jarayonda aksariyat hollarda raqamlidalillar hisoblanganligi sababli, ularni maxsus kodlar, dasturlar yordamida aniqlash mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlar jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari o'ziga xos o'ringa ega ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu borada sodir etilayotgan jinoyatlar bo'yicha ashyoviy dalallarni aniqlashda ularni ko'zdan kechirishning uslubini yanada takomillashtirish taqozo etiladi[3].

Hodisa sodir bo'lgan joyda ashyoviy dalillarni to'plashda, avvalo jabrlanuvchining ro'yxatdan o'tgan ijtimoiy tarmoqdagi profili va ushbu profil joylashgan axborot texnologiya vositasini ko'zdan kechirish lozim bo'ladi. Bundan tashqari uning yozishmalari, xat kelib tushgan sanasi, jo'natuvchining ismi, xabar sarlavhasi, jo'natuvchining akkaunti (ID), yozishmalarning mazmuni, jo'natmalarining mavzusi va jo'natmaning to'liq mazmunini satrma-satr navbatma-navbat kiritish lozim: jo'natuvchi-qabul qiluvchi degan shaklda, jabrlanuvchining akkaunt profilining skrinshotini ko'zdan kechirish bayonnomasiga ilova qilinadi (jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng, uni keyinchalik ashyoviy dalil deb e'tirof etish lozim).

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, jinoyat-protsessual qonun hujjatlari talablariga qaramay, mobil qurilmalar ekspertizasi va kompyuter-texnik ekspertizalarining ob'ektlari O'zbekiston Respublikasi IIV EKBMga ko'pincha muhrlanmagan yoki qadoqlanmagan holda taqdim etilmoqda. Bunday hollarda, muhrlanmagan yoki qadoqlanmagan ma'lumot tashuvchi ob'ektlardagi axborotlarni ruxsatsiz o'zgartirish yoki o'chirib yuborish xavfi saqlanib qoladi.

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda xonadan olingan kompyuter texnikasini, olingan boshqa narsalar, masalan hujjatlar, bloknotlar, yozuv kitoblari va kompyuter-texnik ekspertizasi bilan bog'liq bo'lmagan narsalar bilan bitta qadoqqa joylashtimaslik lozim bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mobil telefonlar va planshet kompyuterlar kompyuter-texnik ekspertizasi ob'ektlariga tegishli emas, balki mobil qurilmalar ekspertizasining tadqiqot qilish predmeti hisoblanadi. Shuning uchun ushbu ob'ektlar bir-biridan alohida qadoqlanishi zarur.

Ishga kerakli ashyoviy dalillar belgilagan tartibda olinganidan so'ng kompyutering o'zida elektron yoki boshqa fishing izlari mavjudligini aniqlash zaruriyati bo'lsa, sud-kompyuter tarmoq, axborot-kompyuter ekspertizalarini tayinlash lozim[4].

Sud-kompyuter tarmoqlari ekspertizalari har qanday tarmoq axborot texnologiyalarini amalga oshiradigan kompyuter vositalarining funksional maqsadlariga asoslanadi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan kiberjinoyatlarning boshqa sodir etilgan jinoyatlarga qaraganda o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ushbu turdag'i jinoyatlar virtual makonda sodir etiladi, ya'ni kompyuter, mobil qurilmalar yordamida, Internet va boshqa aloqa, telekommunikatsiya tarmoqlari orqali amalga oshirilishi bilan izohlansa, virtual makon esa, aniq geografik hududga ega emasligi, ya'ni tarmoqlarda sodir etilganligi sababli uning hududini ham aniqlash imkon yo'qligi, shu bois ushbu turdag'i jinoyatlarda ashyoviy dalillarni qo'l bilan ushlab, aniqlab bo'lmasligi, ya'ni raqamli dalillar hisoblanganligi sababli, ularni faqatgina maxsus kodlar, dasturlar yordamida aniqlash mumkinligini qayd etish joiz.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Shaevich A. A. Jinoyatlarni tergov qilishda kompyuter texnologiyalari sohasidagi maxsus bilimlardan foydalanish xususiyatlari: Muallif avtoreferati. dis. ...kand. qonuniy Sci. – Irkutsk, 2017. – 24 b.
2. Matchanov A.A. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan firibgarlikni tekshirishning sud-tibbiy usullari. Monografiya – T. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 140 b.
3. Vinogradova K. A. Dastlabki bosqichda firibgarlikning ayrim turlarini tergov qilish metodologiyasining xususiyatlari / K. A. Vinogradova // Jinoyatlarni tergov qilish: muammolar va ularni hal qilish yo'llari. 2015 yil. No 1 (7). 106-110-betlar.
4. Matchanov A.A. Kiberjinoyatlarni tergov qilish metodologiyasi. Monografiya – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 148 b.
5. T.B.Mamatqulov. Hujjatlarning texnikkriminalistik ekspertizasi. Ma'ruzalar kursi. O'zbekiston respublikasi ichki ishlar vazirligi. Akademiya. Toshkent – 2017